

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIKA DARSALARINING AHAMIYATI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
 Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi  
 Umirova Mohinur Mirzo qizi*

**ANNOTATSIYA :** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini tafakkurini rivojlantirish va shakllantirishda matematika darsalarining ahamiyati xususida fikr yuritiladi .

**Kalit so'zlar :** Tafakkur , kreativ fikrlash , ta'lim , dars , darslik , TIMSS , faraz , intellektual qobiliyat , mushohada , innovatsiya , to'garak , bilim , fan olimpiadalari .

### **KIRISH**

Bugungi kunga kelib , ta'lim tizimimizga kiritilayotgan yangilanishlar va islohotlar dars jarayonlariga mutlaqo o'zgacha va noodatiy tub burilish yasamoqda . Buni birgina maktabgacha ta'lim muassasalarini yangidan isloh qilinayotgani va ko'p o'zgarishlar kiritilayotgani yaqqol dalil bo'loladi . Nafaqat maktabgacha ta'lim muassasalari , balki umumiy o'rta ta'lim maktablari ham tubdan isloh qilinmoqda . Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan yangi tahrirdagi darsliklar , o'quvchilarni mantiqiy mushohada yuiritishga undaydi . Ayniqsa tabiiy fanlar darsliklari doirasida o'quvchilarni ko'proq kreativ fikrlashga undaydigan topshiriqlar o'rinn egallagan . Chunki bolada kreativ fikrlash qobiliyati shakllansa , turli muammolarga noodatiy yechimlar topoladi . Dunyoqarashi va fikrlash doirasi kengayadi . O'quvchilarni mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirish va shakllantirish nihoyatda mashaqqatli jarayon hisoblanadi . Uzoq muddatni talab etadi . Bola fikrlashini har tomonlama sayqallash uchun muntazam ravishda tizimli ishlarni amalga oshirmoq lozim . Ayniqsa , umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ushbu jarayonga nihoyatda mas'uliyat bilan yondashmoq har bir pedagogdan talab etiladi . Maktabda ta'lim tizimini yangi talqinda tashkil etish yaxshi samara ko'rsatadi . O'quvchilar jamoasi o'rtasida bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirish va doimiy ravishda izlanishda bo'lishga undash , hamda o'z-o'ziga bo'lgan motiv hissini shakllantirish katta ahmiyatga egadir .

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI**

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi , Ta'lim to'g'risidagi qonun va mavzuga oid bir qancha o'quv qo'llanmalardan foydalanildi .

### **MUHOKAMA**

Bilamizki , boshlang'ich ta'lif tizimida o'quvchilarga 4 yil mobaynida matematika fani o'qitiladi . Darhaqiqat , matematika fani "aniq fanlarning asosi" , " fanlar ichra shoh " deb e'tirof etiladi . Maktablarda matematika fanini o'rgatilishidan asosiy maqsad , o'quvchilarni aqliy salohiyatini shakllantirish , intellektual qobiliyatini rivojlantirish , mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirishdan iborat hisoblanadi . Matematika darslarini tashkil etishda , dars jarayonlariga noodatiy yangicha muhitni olib kirish zarur .

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika darslari orqali tafakkurini rivojlantirish bir necha xil ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin . Ushbu jarayonni tashkil etishda , har bir pedagog o'zining mahorati va kreativligidan foydalanmog'i maqdaga muvofiq bo'ladi .

a) Boshlang'ich sinflarda mantiqiy mushohada yuritib yechiladigan turli qiyinlik darajadagi masalalardan dars jarayonida ko'proq foydalanish .

Masalalar bola ongini o'stirishga va tasavvur doirasini kengayishiga yordam beradi . Masalada noma'lum bo'lgan kategoriyalarni topishda , har bir o'quvchi berilgan masalaning shartini bir necha bor ongli ravishda o'qib , tahlil qilib , so'ngra masalaga yechim izlay boshlaydi . O'quvchilar matematika darslarida ko'proq masalalar ustida bosh qotirsalar , ularning IQ darajasi ham yuqori bo'lib boraveradi .

b) Matematika fanidan o'tkaziladigan fan olimpiadalar

Bilamizki , boshlang'ich sinf davrida matematika fanidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ulardagi iqtidorni namoyon etish maqsadida , sinflar kesimida matematika fanidan fan olimpiadalarini tashkillashtirish orqali , o'quvchilar tafakkurini o'stirishga erishish mumkin .

Boshlang'ich ta'linda o'quvchilar o'zlashtirish salohiyati ancha yuqori bo'ladi . Shu boisdan ham ushbu davrda darslar samaradorligi yuqori ko'rsatkichda bo'lsa , o'quvchilarning ongini shakllanishi ham yuqori darajada bo'ladi . O'quvchilar tafakkurini o'stirish , nafaqat dars mashg'ulotlarida balki , sinfdan tashqari bo'ladigan to'garaklar orqali , ham erishish mumkin . Matematika fanidan o'tkaziladigan to'garaklar , o'quvchilarning bilim olishini hamda aqliy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi . Boshlang'ich ta'lif o'quvchilarini intellektual qobiliyatlarini shakllantirish va tafakkurini o'stirishda TIMSS topshiriqlari ham katta ahamiyat kasb etadi . TIMSS- matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi hisoblanadi . TIMSS ( ing . TIMSS-Trends in International mathematics and science study ) asosan 4-8-sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'quvchilarni o'zlashtirish darajasini baholovchi dastur hisoblanib , xalqaro assotsiatsiyasi (IEA ) tomonidan tashkil etiladi . TIMSS topshiriqlari o'quvchilarni aqliy tafakkurini yuksaltirib , kreativ fikrlash qobiliyatini oshiradi . Topshiriqlarda asosan mantiqiy

fikrlash tushunchasi ilgari suriladi . Topshiriqlarni qiyinlik darajasi ham osondan qiyinda qarab yo'naltirilgan bo'ladi . TIMSS topshiriqlariga quyidagi topshiriqlarni misol qilib keltirish mumkin :

1. Bo'yoq 5 litrlik bankalarda sotiladi . Sanjarga 37 litr bo'yoq kerak . U nechta banka sotib olishi zarur ?
   
A) 5   B) 6   C) 7   D) 8
2. Qaysi sonda 8 raqami 800 ni bildiradi ?
   
A) 1468   B) 2587   C) 3809   D) 8624
3. Maktab o'yin maydonchasi kvadrat shaklida . Maydoncha tomonining uzunligi 100 metr . Ra'no maydonchaning atrofini to'liq aylanib chiqdi . U qancha masofani bosib o'tdi ?
   
A) 100 metr   B) 200 metr   C) 400 metr   D) 10000

Shu kabi topshiriqlar bola tasavvurini kengaytirishga , faraz qilish qobiliyatini shakllanishiga yordam beradi .

### **XULOSA**

Umumiy qilib aytganda , boshlang'ich sinf o'quvchilarini aqlan yetuk , barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishda ko'plab omillar bevosita daxldor bo'ladi . Maktabda o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari ularning kelgusidagi faoliyatları uchun asos bo'lib xizmat qiladi . Matematika darsida o'quvchilar mushohada yuritishni , kreativ fikrlashni shu bilan bir qatorda tanqidiy fikrlashni ham o'rGANADILAR . Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek : " Matematika hamma aniq fanlarga asos . Bu fanni yaxshi bilgan bola aqli , keng tafakkurli bo'lib o'sadi . Istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi " . Darhaqiqat , matematika fani yer yuzidagi barcha fanlarning asosidir . Matematika fanini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham qiyinchiliklarga duch kelmaydi . Matematika fani bola ongini yuksalishida va rivojlanishida beqiyos o'ringa egadir . O'quvchilarni kreativ fikrlash qobiliyatini yaxshi shakllantirish uchun ham dastlab ularga matematika fanini mazmun va mohiyatini to'laqonli ochib berish lozim . Zero vatan ertasi , kelajak umidi o'sib kelayotgan yosh avlodning zimmasidadir .

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Akramova . Z " Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi " Eurasian Journal of Academic Research -2022-T.2-N C-417-422 .
2. M.E .Jumayev , Z.G'. Tadjiyev " Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi " .
3. Nusratova .D , Boysanova .F , Boysinov .F " Matematikadan amaliy mashg'ulotlar " .

4. Akramova .Z “ Boshlang’ich sinf o’quvchilarining mantiqiy tafakkurini dars jarayonida shakllantirish ” Journal OF SCIENCE –INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN .
5. TIMSS topshiriqlar to’plami .
6. Ziyonet tarmoqlari .